

**MIKROQARZ OLISH TARTIBI O'ZGARADI!**

*Adliya vazirligi huzuridagi  
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti bosh mutaxassisi  
**Avazmetova Iroda***

Markaziy bank boshqaruvining “Banklarga oʻrnatiladigan makroprudensial normativlar hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar (mikroqarzlar) boʻyicha toʻlovlarning eng yuqori qiymatlariga doir talablar toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori Adliya vazirligida 2025 yil 22 aprelda 3618-son bilan davlat roʻyxatidan oʻtkazildi.

Mazkur nizomda banklarga oʻrnatiladigan makroprudensial normativlar, shu jumladan qarz yuki koʻrsatkichi (DSTI), kreditning garovga nisbati koʻrsatkichi (LTV), kreditlar (mikroqarzlar) kesimida toʻplanish (konsentratsiya) koeffitsientlari, shuningdek banklar tomonidan beriladigan kreditlar (mikroqarzlar) boʻyicha toʻlovlarning eng yuqori qiymatlariga doir talablar belgilangan.

Xususan, ushbu hujjat bilan qarz yuki koʻrsatkichining eng yuqori darajasi belgilanmoqda, shuningdek qarz yuki hisob-kitobida qarz oluvchining oʻrtacha oylik toʻlovlari va oʻrtacha oylik daromadlarini aniqlashga doir talablar xalqaro tajriba asosida takomillashtirilmoqda.

Bundan tashqari, avtomobil sotib olish uchun kredit va ipoteka kreditlari boʻyicha kreditning garovga nisbati koʻrsatkichiga (LTV) qoʻyiladigan talablar, shu jumladan kreditning garovga nisbati koʻrsatkichining eng yuqori darajalari, mazkur koʻrsatkichlar hisob-kitobida kredit summasi va garov qiymatiga doir talablar belgilanmoqda.

Bundan tashqari, kreditlar (mikroqarzlar) kesimida toʻplanish (konsentratsiya) koeffitsientlari, shu jumladan mikroqarzlar, kredit kartalari (overdraftlar) hamda avtokreditlarning bankning jami kredit portfelidagi eng yuqori ulishlariga doir talablar belgilanmoqda.



Shuningdek, mazkur nizomda banklarda qarz yuki o'sishini cheklash me'yoriga doir talablar o'z aksini topgan.

Shu bilan birgalikda, Markaziy bank boshqaruvining "Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning qarz yukini tartibga solish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori Adliya vazirligida 2025 yil 21 aprelda 3205-4-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Bunda, mazkur nizom talablari mikromoliya tashkiloti va lombardlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilandi.

Mazkur hujjatlarning qabul qilinishi Markaziy bankning makroprudensial vositalarini samarali qo'llash hamda bank tizimi barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xususan, banklar uchun kreditlarning tarmoqlar bo'yicha konsentratsiya koeffitsienti joriy etilmoqda. Jismoniy shaxslarga berilgan mikroqarzlarining ulushi bankning umumiy kredit portfelining 25 foizidan oshmasligi kerak (ba'zi banklarda bu ko'rsatkich 100 foizga yetadi).

Regulyator avvalroq mikroqarzlarining joriy konsentratsiyasi ushbu darajadan yuqori bo'lgan banklar uchun zarur vaqtni taqdim etgan holda muvofiqlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishini ta'kidlagan edi. Ularga o'z portfelidagi mikroqarzlar ulushini talab darajasiga tushirish uchun 2029-yil 1-yanvargacha muddat beriladi.

Hujjatda qarz oluvchiga (birgalikda qarz oluvchilarga) mikroqarz berishda qarz yuki ko'rsatkichi 50 foizdan oshmasligi belgilangan. Ya'ni agar qarz oluvchi o'z daromadining 50 foizidan ko'prog'ini to'lashga sarflasa, banklar kreditlarni rad etadi.

Regulyator mikroqarzlar bo'yicha qarz oluvchining majburiyatlari bo'yicha oylik to'lovlarni hisoblashda 36 oylik muddatni belgiladi (ipoteka kreditlari bo'yicha — 180 oy, qolganlari uchun — 60 oy).

Qarz yuki o'sishini cheklash bo'yicha me'yorlarni belgilash borasida ham bir qator o'zgarishlar bo'ldi. Jumladan, bank tomonidan jismoniy shaxslarga beriladigan kredit yoki mikroqarz bo'yicha foiz va boshqa to'lovlarning umumiy



summasi (asosiy qarz bo'yicha to'lovlar va shartnoma shartlariga rioya qilmaganlik uchun jarimalardan tashqari) kunlik asosiy qarz qoldig'ining 0,3 foizidan oshmasligi kerak (0,25 foiz edi).

Bundan tashqari, foizlar, vositachilik haqlari, jarimalar va boshqa javobgarlik choralarini o'z ichiga olgan barcha to'lovlarning umumiy miqdori (asosiy qarzdan tashqari) yiliga kredit summasining 50 foizidan oshmasligi kerak (dastlab 45 foiz taklif qilingan).

O'zgartirishlarga ko'ra, asosiy qarzdan tashqari barcha to'lovlar — foizlar, vositachilik haqi, neustoyka (jarima, penya) va boshqa to'lovlar yig'indisi yiliga qarz miqdorining 50 foizidan oshishi mumkin emas.

Agar shaxs, masalan, 1 million so'm kredit olgan bo'lsa, uning bir yildagi barcha ortiqcha to'lovlari (foizlar + komissiyalar + ehtimoliy jarimalar) 500 ming so'mdan oshmasligi kerak.

Kredit bo'yicha foizlarning o'zi yuqori bo'lishi mumkin, ammo boshqa qo'shimcha xarajatlar bilan birga yillik ortiqcha to'lovning umumiy miqdori 50 foiz bilan cheklanadi.

Ushbu chora foiz stavkasini to'g'ridan-to'g'ri pasaytirishga emas, balki qarz oluvchi uchun kreditning umumiy qiymatini cheklashga qaratilgan, deya tushuntirdi Markaziy bank.

Qarz oluvchining (yoki qarz oluvchilarning) o'rtacha oylik daromadini aniqlashda ikki usulga ustunlik beriladi: hujjatlar bilan tasdiqlangan rasmiy daromadlar yoki qarz oluvchining bank hisobvaraqlariga tushumlar.

Qo'shimcha metod sifatida, agar yuqorida sanab o'tilgan usullar bo'yicha daromadni aniqlash imkoni bo'lmasa, banklar murojaat qilish sanasidan oldingi 6 oydan kam bo'lmagan va 12 oydan ko'p bo'lmagan davr uchun amaldagi kredit bo'yicha haqiqiy to'lovlar to'g'risidagi kredit byurosi ma'lumotlarini hisobga olishlari mumkin (qayta tiklanadigan kredit liniyalari bo'yicha asosiy qarz to'lovlari bundan mustasno).



Bunda qarz yuki ko'rsatkichini hisoblash uchun qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadi sifatida kredit bo'yicha o'rtacha oylik to'lovning 50 foizidan foydalaniladi.

Ya'ni qarz oluvchining o'rtacha oylik to'lovini hisoblashda uning banklar, muddatli iste'mol kreditlari beruvchi tashkilotlar, lizing kompaniyalari va boshqa kreditorlar oldidagi majburiyatlari hisobga olinadi.

Banklarga qarz oluvchining oylik daromadlari medianasidan, agar u arifmetik qiymatdan kam bo'lsa, qarz yuki ko'rsatkichini hisoblash uchun foydalanishga ruxsat beriladi.

O'zbekistonning mikroqarz bozoridagi bu o'zgartirishlar mijozlarning manfaatlarini himoya qilish, banklar uchun barqarorlikni ta'minlash va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Bugungi shaffof va javobgar qarz tartibi, keyinchalik ijtimoiy va iqtisodiy o'sishga turtki berishi mumkin.